3.3. “Kimyo darsini loyihalash asoslari” moduli

3-mavzu. Mikrodars (kichik dars)ni loyihalash va o‘tkazish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsad:

tinglovchilar kimyo fani oqituvchilarida zarur bo‘lgan fasilitatorlik ko‘nikmalari haqida bilimlari mustahkamlanadi;

fasilitatorlik ko‘nikmalari: guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish: ta’rifi, xususiyatlarini topshiriqlar orqali izohlaydilar;

kichik guruhlarda ishlash natijasida ishlab chiqilgan dars rejasi va uning asosida o‘tkazilgan darsga fikr-mulohaza berish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Tinglovchilar faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar

Mashg‘ulot kichik guruhlarda ishlash metodi yordamida tashkil qilinadi. Guruhlarga topshiriqlar beriladi.

Quyida keltirilgan nazariy materialni o‘rganib chiqing va quyidagi mavzular bo‘yicha guruh ishi tayyorlang va uni namoyish qiling.

Tayyrolagan darsi rejasini o‘rganilgan mavzu asosida zarur tuzatishlar kiritib, mikrodars taqdim namoyish etiladi. Avval guruhlar 2-tarqatma asosida fikr mulohaza beradi, so‘ng guruh o‘z faoliyati haqida fikr mulohazasini beradi.

1-guruh uchun topshiriq. Darsning maqsadi qanday belgilaysiz? Darsda nima o‘rgatishni xohlaganingizni aniq belgilab oldingizmi? Qanday o‘quv maqsadlariga erishmoqchisiz? O‘quvchilarni darsga qanday jalb qildingiz? Ularni faollikka qanday undadingiz?

2-guruh uchun topshiriq. Kimyo darsi rejasini tuzing. O‘quvchilar turli ehtiyojlarga ega bo‘lishi mumkin. Siz darsni qanday qilib individual o‘quvchilarga moslashtirdingiz? Darsda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash uchun qanday interfaol metodlardan foydalandingiz?

3-guruh uchun topshiriq. Kimyo darsi rejasini tuzing. Mikrodarsda qanday texnologiyalarni qo‘lladingiz va ularning samaradorligi haqida fikr bildiring.

4-guruh uchun topshiriq. Kimyo darsi rejasini tuzing. O‘quvchilarni qanday baholadingiz? O‘quvchilarning muvaffaqiyatini qanday mezonlar asosida baholadingiz? Qanday baholash usullarini ishlatdingiz?

Amaliy mashg‘ulotga doir nazariy material

Reja

1. Kimyo fani oqituvchilarida zarur bo‘lgan fasilitatorlik ko‘nikmalari.
2. Ishlab chiqilgan dars rejasi va uning asosida o‘tkazilgan darsga fikr-mulohaza berish.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarni mustaqil o‘rganish va ijodkorlikka yo‘naltiruvchi fasilitator sifatida ham faoliyat olib borishi lozim. Ayniqsa, kimyo kabi fanlarda muammolarni ilmiy asosda hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, guruhlarda ishlash samaradorligini oshirish va o‘quvchilar o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish juda muhimdir. Ushbu ma’ruzada kimyo fani o‘qituvchilari uchun uchta asosiy fasilitatorlik ko‘nikmasi: guruhdagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish va guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish haqida so‘z yuritiladi.

1. **Kimyo fani oqituvchilarida zarur bo‘lgan fasilitatorlik ko‘nikmalari**.

Fasilitator – bu ta’lim jarayonida o‘qituvchi emas, balki yordamchi rolini bajaradigan shaxsdir. U o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishiga, muammolarni hal qilishiga va ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘naltiradi. Kimyo darslarida fasilitator nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarni izlanishga undovchi va ularga yo‘nalish beruvchi rahbar hisoblanadi. Fasilitator o‘quvchilarni o‘rganish jarayonining markaziga qo‘yadi va ularning individual ehtiyojlarini inobatga oladi.

Kimyo darsida fasilitator quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

O‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish. Kimyo darslarida mavzuga oid qiziqarli savollar, muammolar yoki hayotiy misollarni keltirib, o‘quvchilarning e‘tiborini jalb qiladi.

Yo‘naltiruvchi bo‘lish. Fasilitator o‘quvchilarga kimyoviy muammolarni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatadi, ammo to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob bermaydi. Ular mustaqil yechim topishga yordam beradi.

Faoliyatni tashkil etish. Fasilitator dars jarayonida guruh ishlarini samarali tashkil etadi, rollarni taqsimlaydi va muloqotning sifatli kechishini ta’minlaydi.

Muammoli vaziyatlarni yaratish. Real hayotdagi kimyoviy masalalar orqali muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi va o‘quvchilarni tahlil qilishga undaydi.

Refleksiya uchun imkoniyat yaratish. Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda jarayonni tahlil qilib, nimaga erishilganini va qayerda yaxshilanish kerakligini muhokama qiladi.

Fasilitatorning xususiyatlari

Kimyo darsida fasilitator bo‘lish uchun quyidagi shaxsiy va kasbiy xususiyatlarga ega bo‘lish zarur:

Sabr-toqat. O‘quvchilarning xatolariga sabr bilan yondashish va ularga rivojlanish uchun imkon berish.

Tinglash qobiliyati. O‘quvchilarning fikrlarini tinglash va ularning savollariga diqqat bilan javob berish.

Muammoli fikrlash ko‘nikmasi. Ilmiy va ijodiy yondashuv orqali muammolarni hal qilishda o‘quvchilarga yordam berish.

Moslashuvchanlik. Turli darajadagi o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashish va ta’lim jarayonini ularga mos ravishda tashkil etish.

Rag‘batlantirish qobiliyati. O‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini ta’kidlash va ularda o‘z-o‘ziga ishonchni oshirish.

Kimyo darsida fasilitator – bu o‘quvchilarga bilim olish yo‘lida ko‘mak beruvchi, ularni ilmiy izlanish va ijodkorlikka yo‘naltiruvchi rahbar. Fasilitator o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi va ularga nafaqat kimyo fanini, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham egallashga yordam beradi. Zamonaviy ta’limda fasilitatorlik yondashuvi o‘quvchilarning mustaqil va faol shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Guruhda ishlash jarayonida faoliyat natijasini baholash ta’lim sifatini oshirishda muhim omildir. Fasilitator sifatida o‘qituvchi quyidagi tamoyillarni inobatga olishi kerak:

Aniq baholash mezonlarini ishlab chiqish: Guruh ishi natijalarini baholash uchun oldindan belgilangan mezonlarni ishlab chiqish zarur. Masalan, kimyo tajribasining natijasi faqatgina tajribaning muvaffaqiyati bilan emas, balki guruhning umumiy ishtiroki, yechim izlashdagi ijodiy yondashuvi va muloqot sifati bilan ham baholanadi.

Barcha a’zolar ishtirokini inobatga olish: Guruh ichida faoliyat teng taqsimlanganligini kuzatish va baholash kerak. Har bir a’zoning hissasini alohida baholash guruhning samaradorligini oshiradi.

Obyektiv tahlil: Fasilitator guruh faoliyatini baholashda obyektiv bo‘lishi lozim. Baholash jarayonida faqat natijani emas, balki jarayonni ham e‘tiborga olish kerak.

Amaliy maslahatlar: Guruh natijalarini baholash uchun rubrikalar yoki reyting tizimlarini ishlab chiqish. Har bir guruh a’zosiga o‘z hissasini baholash imkoniyatini berish. Guruh ishi tugagandan so‘ng refleksiya mashg‘ulotini tashkil etish.

Muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish

Kimyo fanida muammolarni ilmiy asosda yechishga o‘rgatish o‘quvchilarni tahlil qilish, dalillarga asoslanish va innovatsion fikrlashga undaydi. Fasilitator sifatida o‘qituvchi quyidagilarga e’tiborqaratishi lozim:

Savol berish san‘ati: O‘quvchilarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga undovchi ochiq savollarni shakllantiring. Masalan, “Nima uchun bu reaksiya faqat muayyan sharoitda sodir bo‘ladi?” kabi savollar muhokamani boshlashga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqot usullarini o‘rgatish: O‘quvchilarga kimyoviy muammolarni ilmiy tadqiqot usullari yordamida hal qilish bosqichlarini tushuntiring. Masalan, gipoteza tuzish, tajriba o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish: Real hayotdagi kimyoviy muammolarni (atmosfera ifloslanishi, suvning sifatini yaxshilash va boshqalar) o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilish.

Amaliy maslahatlar: Muammoni hal qilish jarayonida ilmiy adabiyotlar va onlayn resurslardan foydalanishga o‘rgatish. Guruhda muammoli vaziyatlarni muhokama qilish uchun munozarali mashg‘ulotlar tashkil etish. Ilmiy jarayonni kuzatish va hujjatlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish

Samarali kommunikatsiya guruhning muvaffaqiyatli faoliyatining asosi hisoblanadi. Fasilitator sifatida o‘qituvchi guruh ichidagi muloqot sifatini oshirish uchun quyidagilarga e’tiborqaratishi lozim:

Ijobiy muloqot muhitini yaratish: Guruh a’zolari o‘z fikrlarini erkin ifoda eta oladigan muhit yaratish. Har bir ishtirokchining fikrini tinglash va qadrlash muhim.

Rol va mas‘uliyatlarni aniqlash: Guruhdagi har bir ishtirokchining rolini aniq belgilash kommunikatsiyani samarali tashkil etishga yordam beradi. Masalan, lider, yozuvchi, vaqt nazoratchisi kabi rollarni taqsimlash.

Faol tinglash ko‘nikmasini rivojlantirish: Guruh ichida o‘quvchilarni bir-birini tinglash va tushunishga o‘rgatish muhim. Faol tinglash orqali ular bir-biriga nisbatan hurmat va tushunishni rivojlantiradi.

Amaliy maslahatlar: Guruh ichida muloqotni yaxshilash uchun interfaol o‘yinlar va mashqlar o‘tkazish. Muloqot jarayonini baholash uchun o‘zaro fikr bildirish mashg‘ulotlarini tashkil etish. O‘quvchilarga “Men” tilidan foydalanishni o‘rgating (“Men shunday fikrdaman”, “Menimcha…”).

Kimyo fani o‘qituvchilarining fasilitatorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Guruhdagi faoliyatni baholash, ilmiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirish va kommunikatsiyani rivojlantirish orqali o‘quvchilarni nafaqat kimyo fanini yaxshi o‘zlashtirishga, balki zamonaviy jamiyat talablariga mos kompetensiyalarga ega bo‘lishga tayyorlash mumkin. O‘qituvchi o‘z faoliyatida ushbu ko‘nikmalarni muntazam rivojlantirib borsa, ta’lim sifati yangi bosqichga ko‘tariladi.

2. Ishlab chiqilgan dars rejasi va uning asosida o‘tkazilgan darsga fikr-mulohaza berish.

Darsga fikr-mulohaza berish – ta’lim jarayonini rivojlantirishning ajralmas qismi bo‘lib, bu o‘qituvchiga darsni o‘tkazish jarayonini chuqur tahlil qilish, kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, shuningdek, kelgusida yanada samarali darslarni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan xulosalar chiqarishga yordam beradi.

1. Fikr-mulohaza berishning mohiyati

Darsni tahlil qilish va unga fikr-mulohaza bildirish quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Dars maqsadlariga erishishni baholash: Rejalashtirilgan maqsadlarning qanchalik amalga oshganini aniqlash.

Metod va vositalarni tahlil qilish: O‘qituvchi tomonidan tanlangan metodlar va vositalarning samaradorligini baholash.

O‘quvchilar ishtirokini tahlil qilish: Dars jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki va qiziqishini aniqlash.

Kamchiliklarni aniqlash va takliflar berish: Darsdagi qiyinchiliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish.

Fikr-mulohaza – bu faqat tanqid emas, balki dars sifatini yaxshilashga qaratilgan konstruktiv takliflar va tahliliy fikrlardir.

2. Fikr-mulohazaning asosiy xususiyatlari

Fikr-mulohaza jarayoni samarali bo‘lishi uchun u quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim:

Aniqlik va obyektivlik: Fikr-mulohaza aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Subyektiv fikrlar emas, balki dars jarayonida kuzatilgan dalillarga asoslanishi zarur.

Ijobiy va salbiy jihatlarni ajratish: Darsning kuchli tomonlarini ta’kidlab, salbiy jihatlarini rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatish lozim. Bu o‘qituvchiga o‘z faoliyatini samarali takomillashtirish imkonini beradi.

Konstruktivlik: Har qanday tanqid va tahlil aniq yechimlar va amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan bo‘lishi kerak. Bu fikr-mulohazani yanada mazmunli va foydali qiladi.

Interaktivlik:

Fikr-mulohaza faqat o‘qituvchining o‘zi tomonidan emas, balki hamkasblar va o‘quvchilarning fikrlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

3. Fikr-mulohazani samarali tashkil etish tamoyillari

Reflektiv yondashuvni qo‘llash: O‘qituvchi o‘z faoliyatiga tanqidiy va reflektiv nazar bilan qarashi lozim. Bu jarayon uchun maxsus savollar ishlab chiqish mumkin:

Dars maqsadlariga erishdimmi?

Qaysi metodlar muvaffaqiyatli ishladi va nima sababdan?

Dars jarayonida o‘quvchilarni qiziqtira oldimmi?

O‘zaro fikr almashish:

Hamkasblar bilan dars haqida suhbatlashish va ularning mulohazalarini olish o‘qituvchining yangi nuqtai nazarlarga ega bo‘lishiga yordam beradi.

O‘quvchilarni jalb qilish:

Darsdan so‘ng o‘quvchilardan qisqa savol-javob o‘tkazib, ularning fikrlarini tinglash muhim. Bu jarayon o‘quvchilarning ehtiyojlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Kamchiliklar bo‘yicha tavsiyalar berish:

Kamchiliklar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish uchun amaliy qadamlar taklif qilinishi kerak.

4. Fikr-mulohazani amalga oshirish vositalari

Fikr-mulohaza berishda quyidagi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi:

O‘z-o‘zini baholash varaqalari: O‘qituvchilar uchun maxsus savollar va baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Video va audio yozuvlar: Darsni yozib olib, keyinchalik tahlil qilish samarali usullardan biridir.

O‘quvchilar so‘rovlari: O‘quvchilarga qisqa savollar berish orqali ularning fikrini o‘rganish.

Hamkasblar tahlili: Darsda ishtirok etgan hamkasblardan fikr olish va ularning takliflarini inobatga olish.

Darsga fikr-mulohaza bildirish – o‘qituvchining professional o‘sishini ta’minlaydigan samarali vosita hisoblanadi. Bu jarayon orqali o‘qituvchi o‘z faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlaydi, kamchiliklarni bartaraf etish

yo‘llarini ishlab chiqadi va ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘shadi. Doimiy tahlil va fikr-mulohaza orqali o‘qituvchi o‘z metodikasini rivojlantirib, zamonaviy ta’lim talablariga mos darslarni tashkil etishga erishadi.

Dars rejasi va uning asosida o‘tilgan darsni tahlil qilish hamda fikr-mulohaza bildirish – o‘qituvchining professional rivojlanishi uchun zarur jarayon. Bu nafaqat o‘tilgan darslarning sifatini oshirishga, balki keyingi darslarni rejalashtirishda yanada samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. O‘qituvchi o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilib borsa, o‘quv jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmatullaev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o‘qitish metodikasi. Toshkent., “O‘qituvchi”. 2008.

2. Jasvinder Randhava, Natasha Mehta. 7-sinf uchun Kimyo darsligi – Toshkent: “Novda Edutainment”. 2024. – 124 b. 2024 yil.

3. Jasvinder Randhava, Natasha Mehta. 7-sinf uchun mashq daftari – Toshkent: “Novda Edutainment”. 2024. – 76 b. 2024.

4. Iskandarov A.Yu., Azamatova D.S., Ismatov I.Sh “ Kimyo o‘qitish metodikasi” Oliy ta’lim uchun darslik., 367 bet., 2024 y